

**MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA IBORALARNI
O'RGATISH USULLARI VA 1-SINF "ONA TILI VA O'QISH
SAVODXONLIGI "DARSLIGIDAN KELTIRILGAN IBORALAR TAHLILI**

Samarqand davlat universiteti
Qarshiyeva Muborak Arslonbek qizi, talaba
muborakqarshiyeva87@gmail.com +998996839732

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz iboralar o'rgatilishining samarali yo'llari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinflari uchun mo'ljallab chiqarilgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining ikkala qismida berilgan iboralar, ularning ma'nosi va nutq jarayonidagi qo'llash uslublari, jarayonlari hamda ularning o'quvchilar dunyoqarashi, fikrlashi shu bilan birgalikda so'z boyligini oshirishdagi ahamiyatida haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: "Ta'lim tog'risida"gi qonun, iboralar, frazeologik birliklar, Sh.Rahmatullayev, I.Azimova, leksik-frazeologik tahlil, nutq jarayoni, nutq uslubi.

Abstract: In this article, you will find the expressions, their meaning and methods of use in the speech process, processes and their use in both parts of the textbook "Native language and reading literacy" intended for the first grades of general secondary schools. You will get information about the importance of students' outlook and thinking in increasing vocabulary.

Key words: Law "On Education", expressions, phraseological units, Sh.Rakhmatullayev, I.Azimova, lexical-phraseological analysis, speech process, speech style.

Аннотация: В этой статье вы найдете эффективные способы обучения выражениям и выражениям, их значению и речи в обеих частях учебника «Родной язык и грамотность чтения», предназначенного для первых классов общеобразовательных школ. Методы применения, процессы и их значение в развитии мировоззрения и мышления учащихся, а также словарного запаса.

Ключевые слова: Закон «Об образовании», словосочетания, фразеологизмы, Ш.Рахматуллаев, И.Азимова, лексико-фразеологический анализ, речевой процесс, стиль речи.

Bugungi zamonaviy dunyoda har bir insonning individual salohiyati, uning nutq ijro eta olish qobiliyati va boshqa shaxsiy sifatlarining rivojlanishi uning yoshlikdan olgan ta'limiga, tarbiyasiga va unib-o'sayotgan holatdagi atrofdagi insonlarning ta'siriga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikning dastlabki davridayoq ta'lim sohasida o'z oldiga qo'ygan bir qator maqsadlarini davlatimiz tomonidan qabul qilingan 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning X sessiyasida qabul

qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida [1, B 1-2], 1993-yil 2-sentabrda va yangi tahriri 2020-yilning 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim tog'risida"gi qonunda [2, B 1-2] hamda 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da [3, B 1-2] o'z ifodasini topgan. Ta'lim sohasini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri bu ta'lim beruvchilar qatlamining har tomonlama yetuk, axborot texnologiyalarda to'liq foydalana oladigan, keng dunyoqarashga ega va psixologik jihatdan baquvvat o'qituvchilarni jamiyatning tayanchi bo'lgan yoshlarga ta'lim berish uchun safarbar qilishdan iborat.

Tilning nutqiy jihatdan boyligi, uning grammatik, leksik, morfologik va frazeologik shakllarda qanchalik mustahkam va foydalanishga qulay ekanligiga ham bo'g'liq. Badiiy va so'zlashuv uslublarida eng ko'p jihatdan tilning, asar qahramonlarining frazeologik birliklarni qay tarzda mohir, qay darajada o'z vaziyatiga munosib holda ishlata olishi nafaqat asarning badiiy salohiyatini shu bilan birgalikda asar qahramoni va so'zlovchining nutqiy mahoratini ifodalaydi. Shunday ekan o'zbek xalqining til tarkibida ham juda ham ko'p miqdorda frazeologik birliklar – iboralar mavjud. Lekin hozirgi vaqtda frazeologik birliklarni o'rganish sohasida ishlar ancha oqsoqlanib qolmoq, shunga qaramasdan Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" asari asosiy adabiyot hisoblanadi [4, B 3-4].

Birinchi sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi tarkibida ham bir qancha iboralar qo'llangan. Ushbu darslik mualliflar jamoasi tomonidan xalqaro ekspertlar yordamida, hamda jahonning ta'lim sohasida yetakchi o'rinda turuvchi davlatlarning ta'lim tizimida o'qitilayotgan darsliklari namunasida tayyorlandi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidagi matnlar, hikoyalar va she'rlarni tahlil qilish jarayonida bir qator leksik-frazeologik ishlarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

- a) Leksik-frazeologik birliklarni o'zaro farqlash;
- b) Lug'at ustida ishlash;
- c) Leksik-frazeologik tahlil

Yuqoridagi uchchala ishni ketma-ket holatda o'zaro tahlil qilib ko'rsak. Leksik-frazeologik birliklarni o'zaro farqlashda asosiy e'tibor frazeologik birliklar ya'ni iboralarni o'rgatishga, uni ma'nolarini anglashga qaratiladi. Darsliklarda berilgan she'rlar, matnlar va hikoya, ertaklar tarkibida keltirilgan iboralar o'quvchilarni so'zamolligini oshirishda, badiiy tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirishda, o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birliklarni o'rgatish bosqichma-bosqich asta-sekinlik bilan o'quvchilarga o'rgatib, tushuntirib boriladi. Dastlabki bosqichda frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalar shakllantirib olish kerak bo'ladi. Bunda o'quvchilarga amaliy topshiriqlar va nazariy jihatdan

tayyorlangan savol-javoblardan foydalangan holda iboralarning leksik-semantik ma'nolari haqida dastlabki tushuncha va ma'lumotlar yetkazib o'tiladi.

Asosiy bosqichda esa o'quvchilar uchun nisbatan qiyinroq bo'lgan jihatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Misol sifatida, frazeologik birliklarning so'z, qo'shma so'zlar kabi lug'aviy birliklar hamda hikmatli so'zlar, maqollar, matallar, tasviriyifodalar kabi o'zgarimas barqaror birikmalardan farqlanish jihatlarini keltirib o'ta olamiz.

Boshlang'ich sinflarda turli janrga oid asarlar tarkibida ham iboralar keltirilgan. Agar o'qituvchi har bir ibora izohini tushuntirib bersa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi (1-qism) darsligidagi matnlarda keltirilgan iboralar izohini keltirib o'tamiz.

1-SINF “ ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI” DARSLIGIDA KELITIRILGAN IBORALAR IZOHI

1-sinf I qism

1. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ikki-uch og'iz so'zlab o'tsam: dadam qishlog'imizda traktorilik qiladi. (Hoshimjonning oilasi, “Sariq devni minib” romanidan)

Ikki-uch og'iz – ozgina, andak (“gap” yoki “gapirmoq”)) Varianti: bir-ikki og'iz ; ikki-uch og'iz ; Sinonimi: ikki shingil.

O'xshash: bir og'iz , to'rt og'iz, ellik og'iz, bir shingil.

2. Ko'cha-ko'yda hamshiralarga ko'zi tushib qolsa, ukol qiladi deb, tog'dan tog'ga qochadi. (Hoshimjonning oilasi, “Sariq devni minib” romanidan)

Ko'zi tushib qolmoq—bexosdan, kutilmaganda ko'rmoq. O'xshashi: Ko'z tashlamoq.

3. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning bo'ynida (Hoshimjonning oilasi, “Sariq devni minib” romanidan)

Bo'yniga olmoq— 1. E'tirof qilmoq. Varianti: Bo'yinga olmoq, bo'ynida. O'xshashi : bo'yniga qo'ymoq.

2. Biror holatga rozi bo'lmoq, ko'nmoq. Varianti : gardan(i)ga olmoq, yelka(si)ga olmoq.

4. Boqivoy kech kirganda

Kirib keldi chang bo'lib.

Bobosi qarar unga

Asabi tarang bo'lib.

(“Vaqt qadri” Abdulla Po'latov)

Asabi tarang bo'lmoq — , achchiqlanmoq, qizishmoq, asabiylashmoq. O'xshashi: qoni qaynamoq, jahli chiqmoq, asabiga tegmoq

5. Ko'ngillarga yorug' tushdi.

Shudgorlarga urug' tushdi. (“Navro'z taronasi “ , Anvar Obidjon)

Ko'ngilga yorug' tushmoq-ko'nglidagi g'ashlik tarqadi. O'xshashi:ko'ngli yorishdi, ko'ngilni yoritdi.

6.Urug'larga jon bag'ishlab,

Yomg'irlar ham qutlug' tushdi.(“Navro'z taronasi “ , Anvar Obidjon)

Jon bag'ishlamoq () – butun kuch imkoniyatini, hatto hayotini bag'ishlamoq. O'xshashi:jon tikmoq

7.Menga qara hoy o'quvchi,

Topshiriqqa quloq sol-chi.

Birin-ketin so'zlar kelar,

Oxirida bo'sh joy bo'lar.(“H” ning aytganlari. (89-bet))

Quloq solmoq- 1.tinglamoq; Varianti: quloq osmoq (eskirgan). Sinonimi: quloq bermoq; 2. Aytganini qilmoq. Varianti: quloq osmoq (eskirgan).Sinonimi: gap(i)ga kirmoq

1-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI 2-QISM

8.— Qaysi dovyurak mendan qo'rqmay fuqarolarimga zulm qilar ekan?
Yuringlar, hozir borib jazosini beraman, - deb irg'ib turdi(“Serkaboboning hiylasi”

Jazosini bermoq– qilmishiga yarasha jazolamoq. Sinonimi: ta'zir(i)ni bermoq;

9.Arslonlarning jahli chiqdi, sochlari tikka bo'ldi.(“Serkaboboning hiylasi” ertagi)

Mehmonda o'zini tutishiga qarab, bolaning odobi haqida bilib olish mumkin ekan.(“ Mehmon bo'lish odobi” , Kamola Sodiq qizi)

O'zini tutmoq – O'z xatti-harakatini irodasiga bo'ysundirmoq .O'xshashi:o'zini qo'lga olmoq

10.Quyon kelib qarasa, mehmonlar ovqatga qo'l urmabdi.(G'alati ziyofat” ertagi (33-bet))

Qo'l urmoq – tegmoq (ertakda bo'ishsizlik shaklida kelgan:qo'l urmabdi-tegmabdi).

11.Bizning uydan doim mehmon

Arimaydi.

Bag'ri ochiq kishilar hech

Qarimaydi.

(Mehmon haqida she'r.(34-bet))

Bag'ri ochiq – yaxshi niyatli,boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan. O'xshashi:ko'ngli ochiq

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Ona tili o'qish savodxonligi” darslarida keltirilgan har iboralar izohini o'quvchilarga to'g'ri yetkazib berish, o'quvchilarni so'z boyligini oshirib borishga va o'z fikr tushunchalarini izchil va erkin, to'g'ri bayon eta olishga o'rgatishi bilan o'ta muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent. O'qituvchi 1978.
2. I. Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi. Toshkent. Respublika ta'lim markazi. 2021. 1-sinf. 1-2-qism
3. N.R. Jalilova, M.Sh. Shaymanova. O'quvchilar nutqini o'stirishda frazeologik birliklarning o'rni. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. 2022 may. 5-nashr. <http://bilig.academiascience.org> 320-bet
4. <https://n.ziyouz.com/>
5. <https://lex.uz/ru/docs/-20596>